

Shukur Xolmirzayev ijodida metaforalarning qo'llanilishi

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
Islomova E'zoza Yorqin qizi

Annotatsiya: Metafora o'xshatish va qiyoslash orqali hosil qilinadigan ko'chimning bir turidir. Metafora tildagi so'zlar miqdorini mo'tadil saqlaydi. Ushbu maqolada benazir ijodkor Shukur Xolmirzayevning "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasi va unda qo'llanilgan metaforalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: metafora, shakliy o'xshashlik, tashqi o'xshashlik, belgili o'xshashlik, troplar, o'xshatish, qiyoslash, lingvistik metafora, badiiy metafora.

Annotation: Metaphor is a type of migration that is generated by analogy and comparison. Metaphor keeps the amount of words in the language moderate. This article analyzes the story of unbelievably creator Shukur Kholmirzayev "Who did not enter eighteen" and the metaphors used in it.

Keywords: metaphor, form similarity, external similarity, sign similarity, tropes, comparison, analogy, linguistic metaphor, artistic metaphor.

Аннотация: Метафора – это тип метафоры, созданный путем аналогии и сравнения. Метафора ограничивает количество слов в языке. В данной статье анализируется рассказ известного художника Шукура Холмирзаева «Нет никого, кто не присоединился бы к одиннадцати» и использованные в нем метафоры.

Ключевые слова: метафора, формальное сходство, внешнее сходство, символическое сходство, тропы, сравнение, сравнение, языковая метафора, художественная метафора.

O'zbek xalqining ardoqli va zabardast farzandi Shukur Xolmirzayev o'zining tengsiz ijod namunalari bilan haligacha o'z kitobxonlari qalbidan munosib o'rinnegallab kelmoqda. Ijodkor sermazmun asarlarida vatanni sevish, uni ardoqlash, har qanday holatda ham unga sadoqat bilan vijdonan xizmat qilish, insonlardagi mehr, muhabbat, vafo, insof kabi xislatlarning qadriga yetish har bir xalq farzandining bajarishi shart bo'lган burchi ekanligini takror va takror ta'kidlab o'tdi. Atoqli adib betakror qissa va hikoyalari, roman va pyesalari orqali o'zining serqirra ijod sohibi ekanligini isbotlay oldi. Shukur Xolmirzayev ijodiy asarlarini yaratish davomida fikrning ta'sirchan va rangli-bo'yoq dor bo'lishi uchun turli o'xshatish va qiyoslash, metaforalardan foydalangan.

Metafora bu fikrni ixsham va lo'nda, ta'sirchan ifodalashning bir usuli bo'lib, bundagi so'zlar o'z ma'nosida qo'llanmay, ko'chma ma'no hosil qiladi.

Ko'chimlarning asosi o'xshatish va qiyoslashdan iboratdir. Shu bilan birga metafora trop deb ham yuritiladi. Trop deb bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga ko'chirish yoki nutqda so'z va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishiga aytiladi¹.

Shukur Xolmirzayevning “O'n sakkizga kirmagan kim bor” qissasida quyidagi metaforalar qo'llangan:

“Laxtak-laxtak qora, ho'l bulutlar bog' etagi tomon osilib borar, ular orqasidan sarg'ayib oy ko'rinaldi” (3-bet). Metaforada ma'lum predmetning biron belgisi bilan boshqa predmetning o'xshashligiga ahamiyat beriladi. Bunday holda predmetlarning rang, shakl, harakat-holat, xarakteri, o'rni va paytga munosabati jihatdan o'xshashligi aniqlanadi². Gapda qo'llangan laxtak-laxtak so'zi aslida gazlama yoki shunga o'xshash narsaning bo'lagi, parchasi ekanligini bildiradi. Ushbu jumlada esa shakliy o'xshashlik asosida metafora hosil qilinib, bulutning bo'lak-bo'lak, parcha-parcha bo'lib osmonda suzib yurganini ifodalagan. Adib ushbu o'rinda shunchaki qora bulut birikmasini ishlatsa ham bo'lardi, ammo bunda fikr ta'sirli va bo'yoq dor tarzda yetkazib berilmaydi. Ho'l sifati deganda narsa yoki predmetga suyuqlik tegishi va to'kilishi natijasida hosil bo'lgandagi namlik tushuniladi. Yomg'ir yog'gan paytda osmonni qoplagan qora bulutlarni bir o'qishda aniq tasavvur etish uchun namlik belgisi bevosita bulutga belgili o'xshatish asosida ko'chirilgan. Parchada bog' etagi ham ko'chma ma'noda qo'llangan. Kiyimning pastki osilgan qismiga etak deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda ijodkor bog'ning yastanib yotgan pastliklarini etakka qiyoslagan. Osilmoq fe'li biror baland jismiga yoki narsa-predmetga bog'lab, ildirib qo'yilgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Daraxtga tarozini osmoq, o'choqqa qumg'on osmoq bunga misol bo'ladi. Yozuvchi bulutning osilib borishi orqali esa uning zulmatdek qora va zich joylashgan holatda bog' tomon suzib borayotganligini tasvirlagan. Shukur Xolmirzayev belgili va shakliy o'xshashlik asosidagi metaforalar orqali bir kechaning butun tafsiloti va hodisalarini bir gapda jamlagan.

“Mehmon – yonoqlari keng, betlari tandirdan uzilgan uy noniday qizil, ko'pchigan, o'rta yashar kishi Jamshidni yoniga o'tqizdi” (5-bet). Ushbu o'rinda ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar metaforani hosil qilgan. Keng sifati hajmi, sathi va sig'imi katta bo'lган uy, maydon, paykal kabi predmet hamda o'rin-joyga nisbatan qo'llaniladi. Bu sifatning yanoqqa nisbatan ishlatilishi esa asar qahramonining gavdaga to'laroq, yuzlari to'lishganini kitobxonga aniq yetkazib beradi. Betlari tandirdan uzilgan uy noniday qizil, ko'pchigan o'xshatishida inson yuzining shakli va holati bevosita ko'pchigan nonga qiyoslangan. Ma'lumki, non

¹ S. Sultonsaidova, O'. Sharipova. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009. 68-bet.

² Y. Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1969. 12-bet.

ko'pchiganidan so'ng oldingi hajmidan ikki barobar kattalashadi va g'avaklashadi. Bu sifatning inson yuziga ko'chirilishi orqali ham aynan bir qarashda ko'pchigan nonni eslatuvchi dumaloq va to'lishgan yuz qiyofasiga ega inson obrazi tasvirlangan. Shu bilan birga, yuzning tandirdan uzilgan qip-qizil uy noniga o'xshatilishi ham bejiz emas. Sababi uy tandirida pishirilgan nonning qizilligi yuzning qizargan holatini eslatadi. Shunga ko'ra, asarda tasvirlangan mehmonning yuzi ham uy nonidek qip-qizil va haroratlari.

“Darvozaga yetmasidan, darvozaning o'zi shig'illab ichkariga ochildi-da, oraliqdan bodom gulli oq chit ko'ylik kiygan, qoracha yuzi yog' surganday yaltiroq yetti yoshlardagi qizcha chiqdi “ (8-9-bet). Yozuvchi qizchaning yuziga nisbatan yog' surganday yaltiroq o'xshatishini qo'llash orqali uning qorachadan bo'lsa ham, istarali ekanligini ifodalagan. Shu bilan birga o'z badiiy obraziga tabiiy jonli qiyofa bag'ishlagan. Bu ham ijodkorning nozik ma'no ifodalashdagi mahoratidan darak.

“Umida guruchday qayta chiqa boshlagan tishlarini ko'rsatib jilmaydi”(9-bet). Guruch hamma uchun tanish bo'lган, qo'l bilan ushlab ko'rilib, ko'z bilan ko'rilib mahsulotdir. Ya'ni guruch deganda barchaning xayolida kichkina-kichkina , tirnoqcha ham kelmaydigan oq bo'lakchalar gavdalanadi. Adib tishni guruchday deb tasvirlar ekan, uning ham shakliy, ham belgili tomoniga e'tibor qaratgan. Oldingi misolda Umida yetti yoshli qizcha deb tasvirlangan edi. Yetti yoshda bolaning sut tishlari tushib, o'rnidan endi kichkina, yangi tishchalar chiqayotgan bo'ladi, ya'ni guruch donalari kabi. Shu sababdan ham yozuvchi yetti yoshli qizchaning tishlarini guruchga qiyoslagan. Bu metaforaning ham shakliy, ham belgili turiga misol bo'ladi.

Badiiy metafora bilan lingvistik metafora ma'lum farqlarga ega. Agar metafora biror shaxsning, narsaning doimiy nomiga aylanib qolgan bo'lsa, u tilshunoslikning muammosiga aylanadi, muayyan matnda ishlatilib, matnda tashqari shu shaxsga, narsaga nisbatan qo'llanilmasa, badiiy metaforaga misol bo'ladi³. “Ko'k ochilib ketdi. Dasht yasharib yashnadi”(16-bet). Ko'k asli zangori, tiniq osmon rangini bildiradi va rang-tus sifatiga mansub. Osmon rangini ifoda etgani uchun ham osmon so'zi o'rniда sinonim sifatida ishlatiladi hamda bunda ko'k so'zi belgi ma'nosidan narsalik ma'nosiga metafora usulida ko'chgan. Ko'k so'zi matnda ham, matndan tashqarida ham shu ma'noni saqlab qolgani uchun lingvistik metafora hisoblanadi. Yasharmoq, yashnamoq inson tabiatiga xos tushunchalardir. Ushbu o'rinda bu so'zlar dashtga nisbatan ko'chma ma'noda qo'llangan hamda kishilarining biror sevinchdan, shodlikdan quvonganida yashargandek yashnash holati bilan ob-havo yaxshilanganida dashtda sodir bo'ladigan o'zgarishlar o'zaro qiyoslangan .

³ S. Sultonsaidova, O'. Sharipova. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009. 68-69-bet.

Ammo bu o'xshatishlar matndan tashqarida boshqa ma'noga egaligi uchun lingvistik metaforaga misol bo'la olmaydi.

"Tepalik etagidagi sariq saqichday loyi chiqib yotgan so'qmoq yoqasida to'xtashdi" (10-bet). Etak metaforasi oldingi misollarda tahlil qilindi. Ushbu gapdag'i sariq saqishday kengaygan metaforasi so'qmoqning sariq qumloqdan iborat ekanligini, yomg'ir yog'gach uning sariq loyga aylanishini hech qiyinchiliksiz tushunilishiga xizmat qilgan. Keyingi o'rindagi o'xshatishda kiyimning yoqasi bilan so'qmoqning yoqasi qiyoslangan. Bu metaforaning shaklan o'xhashlik asosida ma'no ko'chishiga misol bo'ladi.

"Jamshid tepalikning orqa tomoniga ishora qildi va qishloq chekkasidan otilib chiqqanday, o'ydim-chuqur bag'rini tasma-tasma quyruqday qor bosib yotgan toqqa ko'zi tushdi" (11-bet). Yozuvchi ushbu o'rinda ham kengaygan metaforadan foydalangan. O'ydim-chuqur bag'ir insonning yaralagangan holatini ifodalaydi. Ijodkor tog'ga nisbatan o'ydim-chuqur bag'rini tasma-tasma quyruqday qor bosib yotishi metaforasini qo'llash orqali shu tog' manzarasini aniq va yaqqol kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirgan. Otilib chiqmoq ham ko'chma ma'noda qo'llangan. Otilib chiqish to'satdan sodir bo'ladigan, nimaningdir ta'siri ostida o'z o'rnidan haddan tashqari siljish natijasida hosil bo'ladi va bu asosan, narsa-predmetlarga xosdir. Ushbu gapda esa otilib chiqmoq harakat o'xhashligi asosida ko'chgan metafora usulidir.

"Umida kaltakni oldi. O'rikning qontalash barglari yana havoda dildiray boshladi" (26-bet). Bu jumlada qontalash metafora asosida bargning belgisini ifodalagan. Insonning yumshoq to'qimalariga qon quyilishi hodisasi qontalash leksemasi bilan yuritiladi. Adib barglar ham to'qimalardan tarkib topganligiga ahamiyat bergen holda unga qontalash metaforasini qo'llaydi. Qontalash barglar birikmasi orqali daraxt yaproqlarining aynan qaysi rangda ekanligini bilish mumkin. Birinchi gapga e'tibor berilsa, qizcha kaltakni olib daraxtni savalagan-u, shuning uchun barglar qontalash bo'lib qolgan. Shuning uchun ham Shukur Xolmirzayev o'z fikrini tengsiz o'xshatishlar orqali teran ifodalay oladigan iste'dodli ijodkordir.

Xulosa qilib aytganda, metafora fikrni ta'sirchan, nozik qochirimli, bo'yoqdor qilib ifodalashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Metafora nutq bezagidir. Shukur Xolmirzayev o'z asarlari tilining jozibador, shirali, sezmazmun bo'lishi uchun metaforalardan unumli va o'rinli foydalandi. O'xshatish, metafora orqali xalqona so'z va iboralarni, urf-odat, an'analarni, o'z xalqiga aytmoqchi bo'lган dilidagi so'zlarni yanada boyroq tarzda ifodaladi. Yozuvchining har bir o'xshatish, qiyoshlash, metaforalari orqali uning nimani nazarda tutayotganligi hech qiyinchiliksiz, bir ko'rishda tushuniladi. Bu ham ijodkorning metafora qo'llash mahoratining isbotidir. Shukur Xolmirzayev metaforalardan foydalanar ekan, ona

yurtining go'zalligini, o'z qishlog'ining tabiat manzarasini, o'sha davr insonlarining ma'naviy qiyofasini, fasllar tarovatini tasvirlaydi. Adibning qissa va hikoyalarini o'qib, uning o'z xalqiga, an'ana va urf-odatlariga sodiq farzand ekanligini anglaymiz. Iste'dodli ijodkorning qo'llagan har bir metaforalari o'z qahramonlari siyemosiga iliqlik va hayotiylik baxsh etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Sultonsaidova, O'. Sharipova. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009.
2. Y. Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1969.
3. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2015.
4. Sh. Xolmirzayev. O'n sakkizga kirmagan kim bor. – Toshkent, 2018.

